

OILADA BOLA TARBIYASI

Ulashova Navro`za Xudoynazar qizi

Termiz davlat pedagogika institutining

Boshlang`ich ta`lim fakulteti

2-kurs 21-04 guruh talabasi

Tursunova Saida Isakovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang`ich ta`lim kafedrasi o`qituvchisi

tel: +998915886422

Annotatsiya: *Yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi ko`p jihatdan ertamiz egalari bo`lmish yosh avlod qo`lidadir. Shu jihatdan ularni tarbiyasi, bilimli, yuksak salohiyatli, ilm-ma`rifatli, komil inson va har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda barchamiz birdek mas`ulmiz. Xalqimizda “Qush uyasida ko`rganini qiladi!” degan maqol ham bejiz keltirilmagan. Bola albatta, asosiy va boshlang`ich tarbiyani o`z oilasidan oladi. Shunday ekan zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda ota-onalar farzandlariga har qachongidan ko`ra ko`proq e`tiborli bo`lishlari talab etiladi.*

Kalit so`zlar: *oila va jamiyat, oilaviy munosabatlar, sharq mutafakkirlari fikrlari, farzand tarbiyasi.*

“Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart!”

I.A.Karimov

Bola dunyoga kelibdiki, ilk bora ko`zlarini ochishi bilan o`zini onasining issiq quchoqlarida ko`radi va uning kelajakdagi kamolotida ham aynan ota-onasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya`ni bola ertangi kunda jamiyatimizda qanday o`rin tutishi va shu jamiyatimizga qanday inson sifatida kirib borishida ham ota-ona va oilaning o`rni beqiyosdir.

Oila - kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas`uliyat hamda o`zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Jamiyat va oila bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir. Bu bog`liqlikni jamiyatning oilalarsiz mavjud bo`lmasligi hamda o`z navbatida oila ham jamiyatning bir bo`lagi ekanligida ham ko`rishimiz mumkin. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag`rida mavjud bo`lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy jihatdan shakllanganlik darajasiga bevosita bog`liqdir.

Ilmiy- pedagogik, psixologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo`lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma`naviy qiyofasini ko`radi. Jamiyat talablari mohiyatini ham ilk bora shu kichik jamoa orasida oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ko`radi.

Oilaviy munosabatlar ota-onalar yoki bolalarning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiladigan munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlaydi hamda ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham shakllantiradi. Bolaning har tomonlama yetuk, ma'naviy sifatlarga ega bo'lib shakllanishida, unda ma'naviy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy vazifani bajaradi. Ya'ni oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Shu boisdan ham sharqda azal-azaldan oilada bola tarbiyasiga yuksak e'tibor berib kelingan. Xususan, bu borada sharq mutafakkirlarining ham bir qancha qarashlari mavjud. Masalan, Abu Nasr Farobiy yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor bergan. Uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim, aks holda kutilgan natijaga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib shakllanmaydi deb fikr bildirgan.

Buyuk bobokalonlarimizdan yana biri Mirzo Ulug'bek oilada sog'lom, avlodni tarbiyalash haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning har tomonlama mukammal shaxs, komil inson bo'lib shakllanishida muhitning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim. Bundan tashqari sharqning buyuk mutafakkirlaridan hisoblangan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yusuf Xos Hojib, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar oilada bola tarbiyasi yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini qoldirganlar.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularning vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat, o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Bolani har tomonlama barkamol va yetuk qilib tarbiyalashda ota-onalar oilada har bir tarbiya vositalaridan o'z o'rnida va samarali foydalana olishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oilada ota-ona va farzandlar munosabati yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Ota-ona farzandini juda siquvga olishi ham, juda erkalatib yuborishi ham yaxshilikka olib kelmaydi. Masalan, bola haddan tashqari ko'p siquvga olinaversa oxir oqibatda u jamiyat a'zolari bilan muloqotga kirisholmay qoladi, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmaydi, ya'ni kimgadir qaram bo'lib qoladi. Hatto o'zi xohlayotgan narsani yaqin insonlariga ham tushuntirolmaydi. Bu esa uning ma'naviy jihatdan tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Yoki aksincha, bolani haddan tashqari erka qilib o'stirish ham uning kelajagiga hamda kamolotiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bunda bolada mehnat qilish ishtiyoqi, topshirilgan ishga mas'uliyat hissi shakllanmay qoladi. Boshlagan ishini oxirigacha yetkazgisi kelmaydi ya'ni unda layoqat va iroda sifatlari yo'qoladi. Shuning uchun ham nazarimda ota-onalar aynan farzand tarbiyasi masalasida ular bilan do'stona munosabatda bo'lganlari ma'qul. Bola asosiy va boshlang'ich tarbiyani oiladan olar ekan, oilaning asosiy ustunlari hisoblangan ota-onalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda ham e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Chunki bola ota-onasini muntazam ravishda kuzatadi va o'g'il bolalar otani, qiz bolalar esa onani o'zlarining ideali sifatida bilishadi hamda ularning bir-birlariga qilayotgan

muomala madaniyati, xatti-harakati, so`zlashish odobi kabi axloqiy fazilatlarini o`zlashtirib olishadi.

Maktabda va ta'til vaqtida ota-onalar farzandlarini muzeylarga, sayrga olib chiqish orqali ham go`zallik his-tug`ularini kuzatish mumkin. Har bir sinf rahbar yoki fan o'qituvchilari bir haftada bir marta bir soatdan maktab bog`ida sayrni tashkillashtirib o'tsa bola tabiatdan ilhomlanib undagi go`zalliklardan bahramand bo'ladi. Bolada tabiatni asrash kabi tushunchalar shakllanadi. Faqat muzeylarga, tabiat qo`yniga sayrga olib chiqish bilan emas, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kerakli ishlar bilan band qilish va har xil foydasiz o'yinlarga ko'p vaqt ajratmaslikni nazorat ostiga olish kerak. Bu jarayonda o'qituvchi va ota-onalar kelishgan holda ish olib borishi lozim. Ularning bo'sh vaqtini kitob o'qish, har xil o'zbek xalq ertakalarini o'qish, o'zimizning juda ham ajoyib multfilmlarimizni ko'rish bilan band qilishimiz kerak. Bu multfilmlarni ko'rganda bola yaxshilik va yomonlik tuyg`ularini, odob-axloq xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Maktabda o'qituvchi bolani nazoratga olgani bilan bola ko'p vaqtini uyida oila davrasida o'tkazadi.

Shunda ota-onalar o'zlari nazoratga olingan bolaga bir kunlik ishlab chiqarish ishlarining rejasini tuzib, faqat o'qish bilan yetarli bo'lmay, dam olishga, o'ynashga ham ozgina miqdorda vaqt berishi kerak. Bolani nazoratga olsak o'ylagan niyatimizga erishamiz. Bolalarga tabiatni asrash har bir o'simlik va jonivorlarni avaylash, ularga ziyon bermasdan boqishni o'rgatish ham bir tarbiyadir. Oila zimmasiga yosh avlodni har jihatdan mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan. Inson shaxsi sodir muhit oilasidan boshlanadi, oilada fe'l-atvor, odatlar, tevarak atrofga munosabat, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlar vujudga keladi. Eng yuksak insoniy tuyg'ular, ezgu niyatlar, betakror ma'naviyat, iqtidor, fahm-farosat oilada vujudga keladi.

Agar inson faqat o'zi uchungina mehnat qilsa, u atoqli olim, buyuk donishmand, ajoyib shoir bo'lishi, ammo hech qachon chinakam, mukammal va ulug inson bo'la olmasligi mumkin. "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni quvvatlantirmoq kerak, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim". "Agar tarbiya qiluvchi olim bo'lib, amalsiz bo'lsa, bu shogirdlar axloqiga ham yomon ta'sir qiladi". A.R.Beruniyning so'zlarini tinglaymiz; - "Faqat tashqi jihatdangina emas, ichki mazmun jihatdan ham ko'rkam bo'lgan kishigina maqtovg'a munosibdir". Bu so'z bilan Beruniy insonning tashqi yoqimli qiyofasi to'g'ridan-to'g'ri uning axloqiy qiyofasiga bo'g'liqligini o'zgartiradi.

Go`zallikni qadrlash uni bir joyga, unda ishtirok etishga, izlanishga yordam berish bolani yoshligidan tarbiyalashning muhim qismidir. Erta yoshdan, kichkina qiziqarli o'yinchoqlar bolalarni o'ziga jalb qiladi. Unda quvonch hissini uyg'otadi. Ertaklarni tinglash, hayvonlar rasmlarini tomosha qilish, ularning rasmini bo'yash bilan bolalar o'zlariga juda ko'p his-tuyg'ularni qabul qililishadi. Haqiqatdan ham bolalar uchun ertaklar olami, hayvonot dunyosi hamda shu kabi bir qator narsalar bola xayolotida mo'jizakor va hayratlanarli. Bu bola faoliyatining asosiy shakli. Bu taqlid, o'ziga turli xar xil rollardan ko'chirish, kattalar hayotini idrok etishi mumkin. O'yin bola shaxsiyatining barcha asosiy xususiyatlarini shakllantiradi. Birinchi navbatda, madaniyatning paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bilamizki, o'yinlar shakllangan fikrlash, xotira, tasavvur, estetik va axloqiy

qobiliyatlarni rivojlantiradi. Goʻzallik madaniyatini kuzatishda ham oʻyin texnikasining oʻrni sezilarli. Oʻyin malakalari ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, ijodga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, bolani oila muhitida tarbiyalash davomida ularga hayot toʻgʻrisida, yaxshi va yomon xulqlar, odamlarning jamiyat oldidagi burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni berib, ularni har tomonlama hayotga tayyorlab borish lozim. Ayniqsa bolalarning oiladagi anʼana va mavjud ijobiy odatlarni oʻzlashtirishi beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В.А.Сластенин, Г.И.Чижаклова. Введение в педагогическую аксиологию. М-2003

2. Saida TURSUNOVA The method of teaching Russian to younger schoolchildren <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

3. С.И.Турсунова. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год. <https://zenodo.org/record/6569077#.Yorxx6hBwdU>

4. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz «ЧЕЛОВЕК И ВОСПИТАНИЕ – ВОПРОС ОБЩЕСТВА»м Турсунова Саида Исаковна Термезского государственный педагогический институт. преподаватель кафедры Начального образования <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569077>

5. S.I.Tursunova. TALABALARDA MUSTAQIL TAʼLIM JARAYONIDA ISHLASH KOʻNIKMALARINI SHAKLLANTIRISH (E)ISSN:2181-1784WW.oriens.uz 3(3),march,2023

6. S.I.Tursunova. REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY IN EDUCATION <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue04-02>

7. S.I.Tursunova. ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS Views:-2 Downloads:-2 Published Date:- 2023-04-10 Crossref Doi:- <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue04-01>

8. S.I.Tursunova <http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/2326/861>

9. S.I.Tursunova. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=8AGiuXwAAAAJ&citation_for_view=8AGiuXwAAAAJ:YsMSGLbcyi4C

10. S.I.Tursunova The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/2711>